



Models and Content of Organizing Self-Governance Body Systems

Valisher DAVLYATOV¹

Doctor of Science in Law (DSc), Associate Professor

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

bar,
system,
council,
union,
board,
territorial boards.

ABSTRACT

The article analyzes the advocacy system, which is considered an important step in ensuring the effective functioning of the legal profession and improving its position within the legal environment. A self-governing body for lawyers would be beneficial not only for attorneys but for the entire legal system. The establishment of this body will serve to protect lawyers' rights, register documents related to their activities, and ensure the independence of their representatives in resolving legally significant matters. Simultaneously, it is crucial to conduct a scientific-theoretical and practical analysis of the models for organizing a system of self-governing bodies for lawyers in our country.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-pp385-389>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zini o'zi boshqarish organi tizimini tashkil etish modellari va ularning mazmuni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

advokatura,
tizim,
kengash,
ittifoq,
hay'at,
hududiy hay'atlar.

Maqolada advokatura tizimi tahlil qilingan bo'lib, advokaturaning samarali faoliyatini ta'minlash va uning huquqiy muhitidagi holatlarni yaxshilash uchun muhim qadam hisoblanadi. Advokatlarining o'zini o'zi boshqarish organi nafaqat advokatlar uchun, balki butun huquqiy tizim uchun ham foydali bo'ladi. Ushbu organning tashkil etilishi, advokatlarining huquqlarini muhofaza qilish, ularning faoliyatiga doir hujjatlarni ro'yxatga olish, vakillarining huquqiy mazmunli masalalarini hal etishda mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mamlakatimizda advokatlarining o'zini o'zi boshqarish organi tizimini tashkil etishning modellarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish muhimdir.

¹ Doctor of Science in Law (DSc), Associate Professor

Модели организации системы органов самоуправления и их содержание

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

адвокатура,
система,
совет,
союз,
коллегия,
территориальные
коллегии.

В статье анализируется система адвокатуры, что является важным шагом в обеспечении эффективной деятельности адвокатуры и улучшении условий ее правовой среды. Орган самоуправления адвокатов будет полезен не только для адвокатов, но и для всей правовой системы. Создание этого органа послужит защите прав адвокатов, регистрации документов, связанных с их деятельностью, обеспечению независимости их представителей в решении правовых вопросов. Вместе с тем, важно провести научно-теоретический и практический анализ моделей организации системы органов самоуправления адвокатов в нашей стране.

KIRISH

Advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishda advokatlarning o'zini o'zi boshqarish organi tizimini tashkil etish va uning mazmun-mohiyatini ilmiy tadqiq etib o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, mamlakatimizda advokatlarning o'zini o'zi boshqarish organi tizimini tashkil etishning modellarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilmay turib, ushbu modelning eng maqbul shaklini joriy etish kutilgan samarali natijani bermasligiga olib keladi.

Izohli lug'atlarda "tizim" so'zining beshta ma'nosi ko'rsatilgan bo'lib, biron-bir ish faoliyatini tashkil etish, o'zaro bog'liq va uzviy tartibda bo'lgan hodisalar birligi, majmui ekanligi [1] qayd etilgan. Shu bois, advokaturada o'zini o'zi boshqarishning tizimi advokatlarning tashkiloti(lari)ni o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan tashkiliy birliklari majmuini anglatadi.

Ilmiy-nazariy tahlillar asosida advokatlarning o'zini o'zi boshqarish organi tizimi ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra hamda sud tizimiga bog'liq holda tashkil etilganligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda, tadqiqotimiz davomida 40 ga yaqin ilg'or xorijiy mamlakatlarda advokatlarning o'zini o'zi boshqarish organi tizimini tashkil etish tizimi (modellari) qiyosiy tahlil etildi. Bunda kasbiy birlashmalarning davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishida turlicha nomlanishi aniqlandi, xususan "hay'at", "assotsiatsiya", "palata", "jamiyat", "gildiya", "kengash", "ittifoq" va hokazolar.

Xususan, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan, advokaturaning yagona o'zini o'zi boshqarish tizimi belgilangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi o'zining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladigan hududiy boshqarmalari bilan birgalikda advokaturaning yagona o'zini o'zi boshqarish tizimini tashkil etadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining ustaviga ko'ra, hududiy boshqarmalar yuridik shaxs hisoblanadi va u Advokatlar palatasi tizimiga kiruvchi palataga alohida bo'linmasi hisoblanib [3], palataga yuklatilgan vazifalarni tegishli hududda samarali bajarilishini ta'minlaydi. Hududiy boshqarmaning nizomi Advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlanadi. Uning mol-mulki palata mulki hisoblanadi.

O'rganishlar mamlakatimizda advokaturaning o'zini o'zi boshqarishga asoslangan tizimni tashkil etishning asosiy mezoni sifatida ma'muriy-hududiy tuzilish – hududiylik belgilanganligini ko'rsatmoqda. Shu bois, Sh. Sadikovning Advokatlar palatasi vertikal tizim asosida, ma'muriy-hududiy birliklar kesimida tashkil etilganligi haqidagi [4] fikriga qo'shilamiz.

METODOLOGIYA

Maqolada analiz, sintez, qiyosiy tahlil, indeksiya, deduksiya metodlaridan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, advokatlar o'zini o'zi boshqarish organi tizimi modellari quyidagilardan iborat:

Birinchi modelga asosan, har bir ma'muriy-hududiy subyektda (viloyat, provinsiya, shtatda) advokatlarning yagona o'zini o'zi boshqarish organi – hududiy “hay'at” tashkil etiladi. Bunda hududiy hay'atlar biron-bir “umummamlakat miqyosidagi hay'at” tarkibiga kirmaydi. Advokatlarning butun mamlakatga yagona bo'lgan kasbiy birlashmasi mavjud bo'lmaydi.

Advokatura tizimining bunday shakli sobiq Sovet Ittifoq vaqtida amal qilgan davrga xos. Bunda “advokat – hududiy hay'at” tizimi amal qilgan. Tadqiqotimiz davomida advokatlarning o'zini o'zi boshqarish organi tizimining ushbu modeliga to'liq mos keluvchi xorijiy mamlakatlardagi tizim aniqlanmadi. Qariyb barcha mamlakatlarda bugungi kunda u yoki bu shaklda advokatlarning umumdavlat miqyosidagi organi mavjud. Hattoki, sotsialistik tuzumga asoslangan Shimoliy Koreya [5], Vyetnamda [6] advokatlarning umumdavlat miqyosidagi kasbiy birlashmasi faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bois, mamlakatimizda umumdavlat miqyosidagi advokatlarning o'zini o'zi boshqarish organi mavjud bo'lishi zarur, degan xulosaga kelish mumkin.

Ikkinchi modelga ko'ra, u yoki bu davlatda advokatlarning “hududiy hay'atlari” va “umummamlakat miqyosidagi hay'ati” mavjud bo'ladi. “Hududiy hay'atlar” “umummamlakat miqyosidagi hay'ati” tizimiga (tarkibiga) kirmaydi. Advokatlarning o'zi hududiy hay'atga emas, balki “umummamlakat miqyosidagi hay'at”ga birlashadi (a'zo bo'ladi). Umummamlakat miqyosidagi hay'atning asosiy vazifasi davlat organlari oldida advokatlarning vakilligini amalga oshirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifoda etishdan iborat bo'ladi.

Advokatura tizimining bunday shakli 1991-1996-yillarda amal qilgan tizimga o'xshash hisoblanadi. Bunda “advokat – umummamlakat miqyosidagi hay'at” tizimi amal qiladi. Bunday model Belarus Respublikasida [7] joriy etilgan.

Uchinchi modelga asosan, advokatlarning “umumrespublika miqyosidagi hay'ati” mavjud bo'lmaydi. Hududiy hay'atlar ta'rischiligida ularning muvofiqlashtiruvchi organi – kengash tuziladi. Muvofiqlashtiruvchi kengashning asosiy vazifasi davlat hokimiyati organlari oldida vakillikni amalga oshirish, advokatura manfaatlarini ilgari surishdan iborat bo'ladi.

Bunda “advokat – hududiy hay'at – umumiy kengash” tizimi amal qiladi.

To'rtinchi modelga asosan, “hududiy hay'atlar” “umumrespublika advokatlar hay'atini” ta'ris etadi. Advokatlar esa, uchinchi modeldan farqli ravishda, “hududiy hay'atga” birlashadi. Ushbu model “advokat – hududiy hay'atlar – umummamlakat miqyosidagi hay'at” tizimiga asoslanadi.

Ta'kidlash joizki, advokaturani tashkil etishning ushbu modeli asosan davlat tuzilishining federativ shakliga ega mamlakatlarda, xususan Rossiya Federatsiyasi [8], Germaniya [9] kabi davlatlarda amal qiladi.

Beshinchi modelga muvofiq, hududda advokatlarning hay'ati mavjud bo'lmaydi, hududda advokatlarning vakillik organi – kengash yoki palata mavjud bo'ladi. Ushbu organ vakillik vazifasini amalga oshiradi va talabgorlarga advokat maqomini berishda ishtirok etadi. Ushbu organ advokatlarning reestrini yuritadi va boshqa bir qator tashkiliy masalalarni hal etadi. Advokat tashkiliy jihatdan mustaqil shaxs bo'ladi. Ushbu model advokatlarning kasbiy birlashmasi mavjud emasligini anglatadi.

Ushbu modelning bir qator kamchiliklari mavjud. Advokaturani tashkil etishning ushbu modeli advokatlar hay'atining kasbiy birlashma yoki "hay'atlar hay'ati"ni tashkil etishni nazarda tutmaydi. Bu esa, amaliyotda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, qonunchilik bilan biron-bir advokatlik tizimiga birlashmagan advokatlar muayyan guruh manfaatlari atrofida birlashishga kirishadi. Ushbu model "advokat – yagona umumrespublika kengashi" tizimiga asoslanadi.

Turli manfaatlar asosida advokatlar norasmiy tarzda, keyinchalik rasmiy ravishda birlashishga harakat qiladi. Advokatlar kengashi (palatasi) faoliyat ko'rsatayotgan bir hududda turli manfaatlar ko'plab hay'atlar tashkil etishga urinishlar ko'payadi. Ushbu hay'atlar asosan "kasaba uyushmasi"ga aylanadi. Manfaatlar to'qnashuvi hay'atlar o'rtasida raqobatga aylanib ketadi, barcha o'z "odamlari"ni vakillik organiga (palataga, kengashga) kiritishga harakat qiladi. Huddi shunday vaziyat umumrespublika miqyosida ham yuz beradi. Har bir raqobatga kirishgan vakillik organi davlat amaldorlariga qo'llab-quvvatlashiga uchun murojaat qiladi. Salbiy oqibatdan yana biri bu advokaturaning davlat mansabdor shaxslariga o'tishi bo'lib, advokatura jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish vazifasidan chetga chiqiladi.

XULOSA

Ta'kidlash joizki, qonunchilikda advokatning biron bir advokatlik tuzilmasida (advokatlar hay'ati, advokatlik firmasi, advokatlik byurosi yoki yuridik maslahatxona) amalga oshirishga majbur ekanligi belgilangan. Advokatlik tuzilmasi esa, o'z navbatida Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tarkibiga kirmasada, u hududiy adliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tadi.

Advokatlar esa, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga asosan, Advokat O'zbekiston Respublikasining butun hududida, shuningdek, agar olingan topshiriqni bajarish zaruriyati taqozo etsa va tegishli davlatlarning qonunchilikka zid bo'lmasa, respublika tashqarisida ham advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega [10].

Bu esa, mamlakatimizda advokatlar o'zini o'zi boshqarish organining amaldagi tizimi hududiylik prinsipi bilan bir qatorda eksterritoriallik prinsipi asosida tashkil etilganligidan dalolat bermoqda. Binobarin, advokatlik faoliyatini u yoki bu hudud bo'yicha cheklash malakali yuridik yordam ko'rsatishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi. T harfi. / Mas'ul muharrir A.Madvaliyev. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. –B. 84-85.

2. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 18-сон, 144-модда.

3. <https://paruz.uz/uploads/2019/12/ustav.pdf>

4. Адвокатлар сонини ошириш – аввало соҳада рақобатни кучайтириш учун зарур. Advokat. N 6/2021 Б.7.

5. https://world.kbs.co.kr/service/contents_view.htm?lang=r&board_seq=391065

6. <https://wiselawyer.ru/poleznoe/22005-pravovoe-regulirovanie-advokatskoj-deyatelnosti-socialisticheskoy-respublike-vietnam>

7. <https://brka.by/>

8. <https://fparf.ru/>

9. <https://www.brak.de/>

10. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.